

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT KIMYO TEXNOLOGIYA INSTITUTI
YANGIYER FILIALI**

USMANOV JAXONGIR BAZAROVICH

**NIZOMIY ARUZIY SAMARQANDIY FALSAFIY-ILMIY
DUNYOQARASHINING FALSAFIY FIKR TARIXIDAGI O‘RNI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по философским наукам**

**Contents of Dissertation Abstract
of Doctor of Philosophy (PhD) on Philosophical Sciences**

Usmanov Jaxongir Bazarovich

Nizomiy Aruziy Samarqandiy falsafiy-ilmiy dunyoqarashining falsafiy fikr tarixidagi o‘rni.....5

Усманов Жахонгир Базарович

Роль философско-научного мировоззрения Низами Арузия Самарканди в истории философской мысли.....23

Usmanov Jaxongir Bazarovich

The role of the philosophical and scientific outlook of Nizami Aruziy Samarkandi in the history of philosophical thought.....43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....47

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT KIMYO TEXNOLOGIYA INSTITUTI
YANGIYER FILIALI**

USMANOV JAXONGIR BAZAROVICH

**NIZOMIY ARUZIY SAMARQANDIY FALSAFIY-ILMIY
DUNYOQARASHINING FALSAFIY FIKR TARIXIDAGI O‘RNI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI

AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Fal638 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fs-ik.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Davranov Ziyodulla,**
falsafa fanlari doktori, professor.

Rasmiy opponentlar: **Xolmo'minov Jafar Muhammadiyevich,**
falsafa fanlari doktori, dotsent,

Karimov Raxmat Raxmonovich,
falsafa fanlari nomzodi, professor.

Yetakchi tashkilot: Guliston davlat universiteti.

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli Ilmiy kengashning 20__ yil «__» sentabr soat __-__ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zbekiston Milliy universiteti madaniyat saroyi binosi, 1-qavat, Tel.: (99871) 246-02-24, faks: (99871) 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2023 yil «__» _____ dagi № _____ raqamli reestr bayonnomasi).

I.S.Saifnazarov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, falsafa fanlari
doktori, professor

G.M.Ruzmatova,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, falsafa fanlari
doktori, professor

O'.G'.Tilavov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar
raisi, falsafa fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ro‘y globallashuv jarayonlarining borgan sari keng tus olishi sharoitida ma’naviyat, ma’rifat va milliy o‘zlikni anglash muammolari hamda ularning ijobiy yechimlarini topish masalalari tobora dolzarblik kasb etib bormoqda. Bu jarayonlarda o‘tmish allomalarining asarlarida ilgari surilgan ezgu g‘oyalarga ehtiyoj yuzaga kelib, ulardan foydalanish yildan-yilga ortib bormoqda. Shu nuqtai-nazardan mutafakkirlarning ilmiy merosi, falsafiy-ilmiy, ma’naviy-axloqiy qarashlaridagi jamiyat va insonning ma’naviy barkamolligini belgilovchi g‘oyalar, falsafiy ilmlardan foydalanish obyektiv zarurat sifatida e’tirof etilmoqda.

Dunyodagi bir qator ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida arab-musulmon Sharqi mutafakkirlarining, xususan, Nizomiy Aruziy Samarqandiyning merosini o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Yevropa, rus, eron hamda Markaziy Osiyo sharqshunos, faylasuf va filolog olimlarining bu boradagi ishlarini alohida ta’kidlash lozim. Mazkur ilmiy tadqiqot ishlarida alloma asarlarining fors va arab tillarida ko‘chirilgan qo‘lyozma hamda toshbosmalarini topish, tasniflash, o‘rganish, zamonaviy tarjima va nashrlarini amalga oshirish, xususan, ularni o‘rta asrlar davri renessansi mahsuli bo‘lgan «Ma’mun akademiyasi» namoyandalari asarlari bilan qiyosiy tahlil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda ilk Renessans davrining bashariyatga ma’lum bo‘lgan Abu Nasr al-Forobiy, Abu Rayhon al-Beruniy, Muhammad al-Xorazmiy, Abu ali ibn Sino, Fozil Shayx, Qushyor al-Jimiy kabi ko‘plab alloma mutafakkirlarimizning ilmiy, diniy-irfoniy merosi, dunyoqarashi, hayot yo‘li va qadriyatlarini ilmiy va xolis o‘rganishga katta e’tibor berilib, bu merosni keng xalq ommasiga yetkazish va targ‘ib-tashviq etish borasida beqiyos ishlar amalga oshirilmoqda. O‘tmishning ulug‘ mutafakkirlari hayot yo‘li, ilmiy merosini o‘rganish va targ‘ib qilish avlodlar o‘rtasidagi vorisiylikni ta’minlash omili sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan mashshaiyun ta’limotining buyuk namoyandalari faoliyatining davomchisi, Abu Ali ibn Sinoning ma’naviy izdoshi va g‘urriylar davlati dabiri (kotib, vazir) Nizomiy Aruziy Samarqandiy merosi va falsafiy g‘oyalarining mohiyatini o‘rganish zaruriyati mavjuddir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 apreldagi PF-5416-son «Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020 yil 2 martdagi PF-5953-son «Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida»gi farmonlari, 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-son «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2017 yil 23 iyundagi PQ-3080-son «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 1-noyabrdagi 896-son «Hadis ilmi maktabi faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori hamda mavzuga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda

belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Nizomiy Aruziy Samarqandiy va uning “Majma’ an-navodir” asarining ilmiy o‘rganilishi, ilmiy jamoatchilik tomonidan foydalanilishi – isti‘foda etilishini quyidagi tarzda umumlashtiruvchi tadqiqotlar guruhlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

An‘anaviy Sharqda Nizomiy Aruziy Samarqandiy asaridan isti‘foda etgan mualliflar yoki tazkiralari va tanqidiy matnlari.

XIX asr oxiridan boshlab G‘arbiy Yevropa tadqiqotchilari amalga oshirgan “Majma’ an-navodir” matni, tarjimalari, nashrlari.

Rossiya va sobiq ittifoqda, shu jumladan O‘zbekistonda amalga oshirilgan Nizomiy Aruziy Samarqandiy haqidagi tadqiqotlar, uning asari nashrlari.

Birinchi guruhga an‘anaviy Sharq ilmiy-falsafiy tazkirachiligida Nizomiy Aruziy nomi, uning asari va undagi ma‘lumotlardan foydalangan Ibn Isfandiyor, Shamsiddin Somiy, Nasr Marg‘inoniy, Raduyoniy, Rashididdin Votvot, Avufiy, Shams ul-Qays, Davlatshoh Samarqandiy, Vohid Tabriziy, Voiz Koshifiy, Atoulloh Xusayniy, Hasan Xoja Nisoriy Buxoriyning asarlarini kiritish mumkin¹.

Xorij olimlaridan K.Brokelman, R‘yu, X.Purschistal, K.Bosvort, Ch.Stori, H.Masse, Ye.Doziel, P.Heinrichs, G.Lecomte, J.Bearman, S.Nurit, J.Brill, E.Yarshater kabi olimlar Nizomiy Aruziy Samarqandiy merosini tadqiq etganlar.

XIX asrdan boshlab G‘arbiy Yevropada Nizomiy Aruziy Samarqandiy va uning “Majma’ an-navodir” (“Chahor maqola”) asarining kashf etilishi, matnlarning ingliz va boshqa tillarga tarjima qilinishi, nashr etilishi, tadqiq etilishi va umumlashtiruvchi baholanishi ham anchagina jiddiy va an‘anaviy tus olganligini qayd qilish lozim².

MDHda S.Bayevskiy, Z.Vorojeykina, A.Boldirev, M.Muin, E.Bertleslar Nizomiy Aruziy Samarqandiyning «Majma’ an-navodir» asarini ilmiy tanqidiy o‘rganish asosida rus tiliga tarjima qilganlar, Ozarbayjon va Tojikistonda A.Zakuyev, Sh.Mamedov va M.Osmanovlar tadqiqot olib borganlar.

Yurtimizda Nizomiy Aruziy Samarqandiyning ilmiy-falsafiy me‘rosi B.Ahmedov, A.Sattorov, R.Musulmonqulov, I.Ikromov, T.Mardonov,

¹ Бертелс Е.Э. Литература на персидском языке в Средней Азии // Е.Э.Бертелс. Избранные труды. Т. V. История литературы и культуры Ирана. - М.: Наука, ГРВЛ, 1988; Чалисова Н.Ю. Рашид ад-дин Ватват и его трактат «Сады волшебства в тонкостях поэзии» // Рашид ад-дин Ватват. Сады волшебства в тонкостях поэзии (Хадаик ас сихр фи дакаиқ аш-шиър). Писменные источники Востока. LXXIV. Перевод с персидского, иссл. И комментарий Н.Ю.Чалисовой. – М.: Наука, 1983. – С.19-65.

² Mirza Muhammad ibn Abd-al Wahhab of Qazwin. (RYH); Низами Арузи Самарканди. Собрание редкостей или Четыре беседы. Перев. с персидского С.И.Баевского и З.Н.Ворожейкиной, под ред. А.Н.Болдырева. -М.: ИВЛ, 1963. - С. 174; (Ўзбекча ва тожикча табдил, таржимаси); IV ж.-Истанбул, 1898. –Б.4589; Лондон, 1965-1968. I-V тт.; Низоми Арузи Самарканди. Чаҳор мақола. - Душанбе: Ирфон, 1986. - Б. 160.

T.Nazirqulov, Sh.Sharipov, X.Sharifov, M.Xayrullayev, X.Aliqulov, M.Baratov, S.Shermuhamedov, A.Qayumov, R.Nosirov, A.Zoxidiy va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Xususan, akademik M.Xayrullayev o'zining mashhur «Forobiy dunyoqarashi va uning falsafa tarixidagi ahamiyati» nomli tadqiqotida, «Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri»¹ asarida Nizomiy Aruziy Samarqandiyning «Majma'an-navodir» asaridan keng foydalangan.

Shuningdek, I.Abdullayev va H.Hikmatullayevlarning «Samarqandlik olimlar»² kitobida ham nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo tadqiqotchilariga asqotadigan darajada Nizomiy Aruziy Samarqandiy va uning mazkur kitobi, tadqiqoti, ilk o'rta asr tafakkur tarixi uchun muhim manbaviy, tadqiqiy va bibliografik ma'lumot, xulosalar berilgan. O'tgan yillar mobaynida Nizomiy Aruziy Samarqandiy va uning ilk o'rta asrlardagi ilm-fanning o'ziga xos tasnifi to'g'risidagi «Majma'an-navodir» asariga qiziqish ortib bordi.³

Shuni qayd qilish lozimki, yuqoridagi tadqiqotlar asosan filologik, tarixshunoslik, manbashunoslik, matnshunoslik yo'nalishlarida amalga oshirilgan. Shu paytgacha Aruziy Samarqandiy va uning mazkur asari tarixiy-falsafiy jihatdan o'rganilmagan edi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali «Umumiy fanlar» kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining «Markaziy Osiyo uyg'onish davri mutafakkirlarining ilmiy merosi» kompleks tadqiqotlar mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Nizomiy Aruziy Samarqandiyning shaxs-jamiat-davlat munosabatlarida ilm va fan uyg'unligini o'rganish, murosa madaniyatini shakllantirishga oid ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-axloqiy qarashlarining zamonaviy shaxs shakllanishidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari.

Aruziy Samarqandiy yashagan tarixiy muhitning mutafakkir dunyoqarashiga ta'sirini ochib berish, boy ilmiy-falsafiy va badiiy-axloqiy merosining o'ziga xosligini dalillash;

Aruziy Samarqandiyning o'rta asr mumtoz arab-musulmon falsafasi va badiiy tafakkuri tarixidagi o'rnini, falsafadagi Mashshaiyyun oqimi vakili, fan va falsafa tarixchisi sifatidagi o'rnini aniqlash;

¹ Хайруллаев М.М. Мировоззрение Фараби и его значение истории философии. –Ташкент: Фан, 1971.

² И.Абдуллаев, Х.Хикматуллаев. Самарқандлик олимлар. – Тошкент: Фан, 1969. – Б. 24-28.

³ Хайруллаев М.М.Мировоззрение Фараби и его значение в истории философии. –Ташкент: Фан, 1967; Хайруллаев М.М.Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1971; Абдуллаев И. Хикматуллаев Н. Самарқандлик олимлар. – Тошкент: Фан, 1969. – Б. 24-28; Низомий Арузий ибн Умар Самарқандий (ваф. 1160) // Ўзбек Совет Энциклопедияси. I-XIV тт. – Тошкент, 1976. 7-том, – Б. 648; Самарқандий Н. // Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. I-X тт. Т.I. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2002-2008. I-V т., 1976; Самарқандий. Н.А. 6 ж. - Тошкент: ЎЗМЭ, 2007. – Б. 530; Низоми Арузи Самарқандий. Тўрт (Чор) мақола. – Тошкент: Чўлпон, 1991. – Б. 81-87; Низомий Арузий Самарқандий. Нодир ҳикоялар. – Тошкент, 1985. – Б. 228.

Aruziy Samarqandiyning o'rta asr arab-musulmon falsafasining boshqa oqim va muammolarga (Tabiiyyun, Tasavvuf, Kalom, Fiqh) ilmiy-xolis munosabatini manbaviy asoslash;

Aruziy Samarqandiy ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashining o'ziga xosligini "Majma' an-navodir" asari asosida bir butun holda tadqiq etish hamda mutafakkirning ontologik, gnoseologik qarashlarini tahlil qilish;

Tadqiqotning obyektini Nizomiy Aruziy Samarqandiyning falsafiy-ilmiy merosi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti Nizomiy Aruziy Samarqandiy falsafiy dunyoqarashini falsafa tarixidagi o'rnidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimlilik, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Aruziy Samarqandiy ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ontologik va gnoseologik mohiyati, Markaziy Osiyo Ilk Renessansining ilmiy-ma'rifiy yo'nalishini xususiyatlari, rivojlanishi va keyingi taraqqiyotiga ta'siri hamda Uchinchi renessansning poydevorini yaratishda shaxs-jamiyat dialektikasiga erishishda manbaviy asos sifatidagi ahamiyati ochib berilgan;

Aruziy Samarqandiyning «Majma' an-navodir» asarida ilgari surilgan ijtimoiy-falsafiy va insonparvarlik g'oyalari, jamiyat sinovidan o'tgan, o'zak qadriyatlarga tayangan, insonning ijtimoiy-axloqiy mohiyatini belgilaydigan, sub'ekt-ob'ekt munosabatlarini tartibga soladigan tayanch axloqiy qoidalari asoslangan;

Aruziy Samarqandiyning borliq, uning qonunlarini bilishga ratsional yondashganligi, tasavvufiy irratsionalizmni, shuningdek, «Ihvon-us-safo» chilar kosmologiyasi, kosmografiyasi, astrologiyasidagi ba'zi mistik-irratsional qarashlarni ilmiy dalillar asosida inkor qilganligi yangi davr nujum ilmi taraqqiyotiga futurologik jigatdan vorisiy ta'siri asoslangan;

mutaffakirning amaliy siyosiy faoliyati, boy tajribasi va ilmiy-falsafiy merosi mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida davlat boshqaruvi, kadrlar siyosati va ularning kompetensiyalarini shakllantirishda, boshqaruvni malakali, salohiyatli kadrlar bilan ta'minlashda integratsiyaga erishish erishishda nazariy hamda g'oyaviy ahamiyatga egaligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari Nizomiy Aruziy Samarqandiyning olam va odam, davlat va jamiyat haqidagi g'oyalari hamda falsafiy-axloqiy va dunyoviy merosidan falsafa, dinshunoslik, ma'naviyatshunoslik, mantiq, pedagogika kabi fanlarni o'qitish jarayonida foydalanish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan;

Nizomiy Aruziy Samarqandiyning asarlaridagi shaxs ma'naviy kamolotiga oid g'oyalarning hozirgi zamon yoshlar dunyoqarashidagi ahamiyati asoslangan va ulardan ma'naviy-ma'rifiy faoliyat tizimida foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda muhokama qilinganligi, xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ishda ilgari surilgan g'oyalar, ilmiy xulosalardan ijtimoiy fanlar bo'yicha darslik va qo'llanmalar tayyorlashda; falsafa tarixi, dunyoviy ilmlarga oid, Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-falsafiy, tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-axloqiy tafakkur taraqqiyotining asosiy yo'nalish va muammolari tadqiqiga oid keyingi izlanishlarda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Nizomiy Aruziy Samarqandiy asarlarida ilgari surilgan hayotbaxsh g'oyalar zamonaviy barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida foydalanish mumkinligi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, dissertatsiyadagi taklif va tavsiyalardan aholining turli qatlamlariga milliy ma'naviy merosimiz bilan faxrlanish, ajdodlarga munosib avlod bo'lish g'oyasini singdirish, ajdodlarning madaniy an'alarini o'rganish ishlarini jonlantirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi Nizomiy Aruziy Samarqandiyning falsafiy-tarixiy dunyoqarashi va falsafiy fikr tarixidagi o'rni mohiyatini ochib berish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

Aruziy Samarqandiy ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ontologik va gnogeologik mohiyati, Markaziy Osiyo Ilk Renessansining ilmiy-ma'rifiy yo'nalishini xususiyatlari, rivojlanishi va keyingi taraqqiyotiga ta'siri hamda Uchinchi renessansning poydevorini yaratishda manbaviy asos sifatidagi belgilovchi ahamiyati ochib berilganligiga oid xulosalardan Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat markazining 2022-2023 yillarda o'tkazilgan targ'ibot va tashviqot ishlarida foydalanilgan (Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashi, respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023 yil 1 maydagi 02-22/379-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, markaz tomonidan o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning mazmun-mohiyati, sifat samaradorligi yaxshilanishiga erishilgan;

Aruziy Samarqandiyning «Majma' an-navodir» asarida ilgari surilgan ijtimoiy-falsafiy va insonparvarlik g'oyalari, jamiyat sinovidan o'tgan, o'zak qadriyatlarga tayangan, insonning ijtimoiy-axloqiy mohiyatini belgilaydigan, sub'ekt-ob'ekt munosabatlarini belgilovchi tayanch qoidalaridan Xorazm Ma'mun akademiyasining A-FA-2019-9 raqamli «Qadimiy yozma noyob qo'lyozma va manbalarni tadqiq qilish, ularning raqamlashtirilgan bibliotekasini yaratish» amaliy loyihasida foydalanilgan (Xorazm Ma'mun akademiyasining 2023 yil 1 maydagi № 71/1-23-sonli ma'lumotnomasi) Natijada, akademiya tomonidan tuzilgan bibliografik ro'yxatni yangi falsafiy ma'lumotlar bilan boyitishga erishilgan;

Aruziy Samarqandiyning borliq, uning qonunlarini bilishga ratsional yondashganligi, tasavvufiy irratsionalizmni, shuningdek, «Ihvon-us-safo» chilar kosmologiyasi, kosmografiyasi, astrologiyasidagi ba'zi mistik-irratsional qarashlarni ilmiy dalillar asosida inkor qilganligi yangi davr nujum ilmi taraqqiyotiga vorisiy ta'siri g'oyalariidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasi tomonidan 2022-2023 yillarda o'tkazilgan targ'ibot tadbirlari rejalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari

qo‘mitasining 2023 yil 30 maydagi 7-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, o‘tkazilgan tadbirlarning mazmun-mohiyati, sifati yaxshilanishi va boyishiga erishilgan, alloma merosi haqidagi bilimlarning keng xalq ommasi orasida yoyilishiga xizmat qilgan;

mutaffakirning amaliy siyosiy faoliyati, boy tajribasi va ilmiy-falsafiy merosi mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida davlat boshqaruvi, kadrlar siyosati va ularning kompetensiyalarini shakllantirishda, boshqaruvni malakali, salohiyatli kadrlar bilan ta‘minlashda zarur bo‘lgan ilmiy-nazariy hamda g‘oyaviy ahamiyatga egaligiga oid ilmiy yangiliklardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Sirdaryo telekanalida efirga uzatilgan «Minbar» ko‘rsatuvlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Sirdaryo telekanalining 2023 yil 10 martdagi 01-01/49-sonli ma‘lumotnomasi). Sirdaryo viloyati teleradiokompaniyasi efirga uzatgan «Minbar» ko‘rsatuvining ssenariysi mazmunini ilmiy asoslangan ma‘lumotlar bilan boyishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.

Tadqiqot natijalari 1 xalqaro va 4 respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma‘ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola (4 tasi respublika va 1 tasi xorij jurnalida) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, «Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati» va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 140 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchlilik darajasi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning I bobi «**Nizomiy Aruziy Samarqandiy yashagan davrda madaniyat, ilm-fan, falsafa taraqqiyoti**» deb nomlanib, unda XI asrning oxiri–XII asrning boshlarida Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotning Nizomiy Aruziy Samarqandiy dunyoqarashi shakllanishidagi o‘rni, mintaqadagi murakkab tarixiy-siyosiy, diniy vaziyat tavsiflangan va mazkur sharoitlarning shu davrda Saljuqiylar hokimiyatida Xorazmshoxlar, Qoraxitoylar, Shiya islomiylarning markazlarida ijtimoiy vaziyat, xususan Nizomiy Aruziy Samarqandiyning dunyoqarashiga ta‘siri ochib berilgan.

Dissertatsiyada oldingi tadqiqot ishlarining tahlili asosida Nizomiy Aruziy Samarqandiyning hayoti va ijodi Buyuk G‘aznaviylar saltanatining tanazzuli, Xuroson va Movarounnahrda g‘uriylar, o‘g‘uzlar va shansabiylarning hokimiyatni mustahkamlash uchun kurash davri bilan bog‘liqligi asoslangan.

Tadqiqotda Buyuk G‘azna Sultoni va uning avlodlari qurgan g‘aznaviylar davlati, saljuqiylar, g‘uriylar davlatlari zarbalari ostida yemirilib borayotgan, ayni paytda Saljuqiylar davlati Buvayhiylar davlatini chetga surib, Bag‘dodni egallagan – o‘z taraqqiyotining eng yuksak cho‘qqisiga ko‘tarilib, Abbosiy xalifalarining homiysi bo‘lib tan olingan, Abbosiylar xalifaligi hokimiyatni asosan diniy-shar‘iy va ma‘naviy-e‘tiqodiy sohalar bilan cheklab, o‘zi esa mumtoz arab-musulmon jamiyatidagi barcha amaldagi siyosiy-harbiy hokimiyatni o‘z qo‘lida to‘plagan saltanat ekanligi isbotlangan¹.

Shu davrdagi shafqatsiz qirg‘in-barot, talon-taroj, vayronagarchilik, zo‘ravonlik, o‘zboshimchalik, ochlik, qahatchilik, toju taxat uchun kurashlar mutafakkirning dunyoqarashiga ta‘sir qilmay qolmadi, jamiyatning ijtimoiy holati uning dunyoqarashida o‘z aksini topdi.

Bobda O‘rta va Yaqin Sharqda IX-XI asrlarda mumtoz arab-musulmon sivilizatsiyasi, jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy hayotida “Buyuk ko‘tarilish” davri bo‘lganligi², Nizomiy Aruziy Samarqandiy esa ana shu “oltin davr”ning vorisiy davomi bo‘lgan XII asrda g‘uriy, shansabiylar muhitida yashab ijod qilganligi. bizgacha yetib kelgan yagona asari “Majma‘ an-navodir” (Chahor Maqola) asarini yozganligining tarixiy, ijtimoiy-siyosiy va diniy-mafkuraviy shart-sharoitlarini ko‘rsatib berilgan.

¹ В.В.Бартольд. Калиф и Султан // Бартольд В.В. Сочинения.Т.VI. – М.: Наука, ГРВЛ,1966. – С.15.

² Мец А. Мусульманский Ренессанс. – М.: Наука, ГРВЛ, 1973. – С. 384.

Shuningdek, dissertasiyada “Majma’ an-navodir” (Chahor Maqola) asariga tayanib, “Aruziy” taxallusini olishi tasodif emasligi, badiiyat ilmi nazariyasi bilan jiddiy shug‘ullanganligini, o‘sha davr mushoiralarida g‘olib kelib, bunday taxallusni o‘ziga olganligini talqin etiladi. Mutafakkir shoir, nadim, voiz sifatida katta shuhratga ega bo‘lganligini, garchi bizgacha yetib kelmagan bo‘lsada, salmoqli ilmiy-ijodiy meros qoldirganligini manbalarga asoslanib taxmin qiladi¹.


Tadqiqotda Nizomiy Aruziy Samarqandiy nafaqat badiiyatda mohir, balki tabobatda ham mohir ekanligi bir bemor bolani davolagani misolida ko‘rsatib berilgan².

Demak, Nizomiy Aruziy Samarqandiy ijtimoiy ziddiyatli davrda yashagan va o‘z asarlarida davrga xolis baho bergan va jaholatga qarshi yuksak ma‘rifatni ulug‘laganligi ochib berilgan.

Nizomiy Aruziy Samarqandiy yashagan davri yuzasidan jamiyatning turli qatlamlari orasida 2023 yil 4 martidan – 16 martigacha 568 nafar respondent qatnashgan so‘rovnom natijalarida ham ko‘rishimiz mumkin. Unga muvofiq «Nizomiy Aruziy Samarqandiy yashagan XII asr davridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni qanday baholaysiz?» degan savolga respondentlarning 30.9 % (150 nafari) – «O‘ta ziddiyatli», 31.5 % (156 nafari) – «Barqaror rivojlangan», 27 % (131 nafari) – «Umuman bilmayman», 27 % (131 nafari)– «Javob berishga qiynalaman» qabilida javob berishgan. (1-rasm.)

Nizomiy Aruziy Samarqandiy yashagan XII asr davridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni qanday baholaysiz?

486 ответов



1-rasm. Respondentlarning “Nizomiy Aruziy Samarqandiy yashagan XII asr davridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni qanday baholaysiz?” degan savolga javoblari.

Dissertatsiyaning II bobi «Nizomiy Aruziy Samarqandiy o‘rta asr arab-musulmon ilm-fani va falsafasining targ‘ibotchisi sifatida» deb nomlanib, unda Aruziy yashagan davrda vorisiy rivojlantirilgan tabiatshunoslik ilmlari yutuqlari riyoziyot (matematika), ilmi nujum (astronomiya), fizika, ximiya, tibbiyot,

¹ Низами Арузи Самарканди. Собрание редкостей или Четыре беседы. Перев. с персидского С.И.Баевского и З.Н.Ворожейкиной, под ред. А.Н.Болдырева – М.: ИВЛ, 1963. – С. 125.

² Низами Арузи Самарканди. Собрание редкостей или Четыре беседы. Перев. с персидского С.И.Баевского и З.Н.Ворожейкиной, под ред. А.Н.Болдырева – М.: ИВЛ, 1963. – С. 120.

geometriya, geodeziya, mineralogiya, farmakognoziya (saydana), geografiya (jo'g'rofiya), optika, kartografiya, taqvimshunoslik, asbobshunoslik, tarozishunoslik va boshqa sohalaridagi olamshumul kashfiyotlarda o'z ifodasini topgan, nafaqat yuksak rivojlantirilgan edi, balki Xorazmiy, Farg'oniy, Jobir, Roziy, Abu Mash'ar, Beruniy, Ibn Sino va boshqa qomusiy olimlar shoh asarlarida umumlashtirilib berilgan, Ibn an-Nadimning "Fihrist"¹, Kotib Xorazmiyning "Miftah-ul-ulum", Faxriddin Roziyning "Mafotih-ul-ulum" kabi ko'pchilikka mo'ljallangan qomusiy lug'atlar-ma'lumotnomalarda ommabop tarzda, lo'nda qilib mohiyati ochib berilgan.

O'z davri tabiatshunoslik ilmlari yutuqlari haqida gap borganda, Aruziy ularni oddiy, qiziqarli dalil, hikoyatlar tarzida yoritmasdan, ularga falsafiy metodologik jihatdan yondashadi.

Tabiiy-ilmiy bilimlar, Aruziy fikricha, dunyoviy jamiyat hayoti birinchi mas'ul shaxs – podsho eng zarur narsalardir: "Kotib (Dabir), shoir, munajjim va tabib esa podshohning eng yaqin kishilari bo'lib, u biror ishni ularsiz o'rniga qo'yishi amri-mahol. Zero, dabir – (davlat) boshqaruvining mustahkamligi, shoir – uning abadiy sha'n-sharaf, munajjim – a'mollarni eng yaxshi, xayrli bo'lishini ta'minlovchi, tabib esa – tana sog'ligi tayanchidir.

Bu to'rt og'ir a'mol va falsafiy fanlarning shoxobchalari: dabirlik va she'riyat – mantiqiy ilmlar shoxobchasidan, munajjimlik – riyoziyot shoxobchasidan va tibbiyot – tabiatshunoslik shoxobchasidan bo'lgan oliyanob fanlardandir"².

Aruziy tibbiyot ilmiga oid falsafiy ta'rif beriladi. "Podshohga ma'lum bo'lsinki, dabirlik – oson ish emas, va she'r yozish – bekorchining mashg'uloti emas, va munajjimlik juda kerak ilm, va tibbiyot – o'ta zarur san'atdir"³.

Demak, Aruziy "Majma' an-navodir"ning har bir ilm-fan sohasiga eng avvalo falsafiy-metodologik kirish - ta'rif, yo'nalishini bergan holda, so'z yuritadi. Qolaversa, garchi Aruziyning bu asari fanlar tasnifiga bag'ishlangan asar bo'lmay, o'sha davrdagi amaliy hayot, jamiyat va davlat hayotiga oid eng zarur, qiziqarli va ibratli o'gitlardan iborat tazkira bo'lsada, diqqat bilan tahlil etilsa, mazkur sohalar bayonini Arastuning fanlar tasnifiga oid ta'limoti, Forobiyning "Ihso-ull-ulum", Shayx-ur-Raisning "Aqsom ulum al-aqliya" asarlaridagi fanlar tasnifi tizimi, mantiqiy izchilligi – ketma – ketligiga qat'iy rioya qilgan holda tuzilganligini ko'rish mumkin.

Hatto dabir ham "chuqur fikrli, keskir mulohazali bo'lmog'i lozim. Ilm, uning barcha ne'matlari, barcha eng umumiy qismlari va hissasi bilan u sohib bo'lgan a'molga aylanishi lozim va u mantiqiy tafakkur usullaridan o'zini olib qochmasligi, ularga begona bo'lmasligi lozim"⁴, - deb yozadi Aruziy.

¹ Полосин В.В. «Фихрист» Ибн ан-Надима как историко-культурный памятник X века. – М.: Наука, ГРВЛ, 1989. – С.160; Sarton G. Introduction to the History of science. N. – Y.Baltimore, 1927-1935. Vv.I-III.

² Низами Арузи Самарканди. Собрание редкостей или Четыре беседы. Перев. с персидского С.И.Баевского и З.Н.Ворожейкиной, под ред. А.Н.Болдырева – М.: ИВЛ, 1963. – С. 36-37.

³ Ўша жойда.

⁴ Собрание редкостей или Четыре беседы. Перев. с персидского С.И.Баевского и З.Н.Ворожейкиной, под ред. А.Н.Болдырева – М.: ИВЛ, 1963. – С. 38.

Aruziy o‘z davri tabiatshunoslik ilmlarining asoslari – riyoziyot, hisob ilmi, handasa, ilmi nujum haqidagi 3-bobni boshlashda qisqacha metodologik kirish – debochani Abu Rayhon Beruniyning “Kitab-at-tafhim li-l-avo’il sino’ati-ut-tanjim” (“Yulduzlar ilmi birlamchi tushunchalari haqida kitob”)¹, munajjimlik san’atini, riyoziyot ilmi va uning – handasa, hisob, kosmografiya va (yulduzlarga qarab) hukm chiqarish kabi ilmlarini to‘la egallamasdan munajjimlik unvoni sohibi bo‘lish mumkin emas”², - degan so‘zlari bilan ta’riflaydi.

Aruziy xulosasiga ko‘ra, Abu Mash’ar, Beruniy, Nizom-ul-mulk, Umar Xayyom kabi buyuk olim, davlat va siyosat arboblarning munajjimlar bashoratiga asl munosabati quyidagicha. Zero, ular e’tiqodiga ko‘ra, kajraftor taqdir tulpori shunday o‘ynab turishi mumkinki, agar munajjim goroskopi to‘g‘ri tuzilib, to‘g‘ri o‘rnatilsayu, to‘g‘ri hisob-kitob qilinsa, buning ustiga munajjim o‘tkir zehn va zukko aql sohibi bo‘lsayu, sodir bo‘layotgan hodisaning asosiy jihatlari to‘g‘ri aniqlanib, qayd etilgan bo‘lsa va munajjim buning ustiga bir ozgina omadli bo‘lsa, bunday bashorat albatta to‘g‘ri bo‘lib chiqishi, amalga oshishi mumkin³.

Xuddi shunday umumiy xulosani hozirgi XXI asr olimlari mashhur Nostradamus bashoratlari xususida ham deyarli ana shu ma’noda baholamoqdalar⁴.

Beruniy o‘z qarashlarida buyuk Tabiiyyunlarning ilmiy qat’iy odatiga ko‘ra, lo‘nda qilib, “Jon esa o‘zining barcha asosiy holatlarida (inson) tanasi mijoziga tobe’dir (bog‘liqdir), shuning uchun ham uning (jonning) holati turlicha bo‘ladi va o‘z xarakteriga ko‘ra turli-tuman bo‘ladi”⁵ deb ta’kidlaydi.

Abu Mash’ar al-Balxiy haqidagi ma’lumotlarni Aruziy Samarqandiy o‘z kitobining ikki-uch o‘rnida keltirib o‘tadi.

1. Ilmi haya (astronomiya) va munajjim (astrolog)larga bag‘ishlangan uchinchi maqola bu ilmlarni o‘rganishning o‘ziga xosligi, uning asosiy g‘oya va prinsiplari, metodologik konsepsiyasi va o‘quv-uslubiy asoslarini bayon etar ekan, ilmi nujum va munajjimlik tasodifiylik, tahminning to‘g‘ri kelishi asosiy, hal qiluvchi o‘rin tutishi va bu sohadagi shoh, fundamental o‘quv qo‘llanmalarini, ularning mashhur mualliflarini sanab o‘tganda, Sajjiziy, Beruniy, Qushyor ibn Jimiy kabi ilmi nujum raislari qatorida sanab o‘tgan⁶.

2. Abu Mash’arni Kindiyning talabasi bo‘lib, ishonchiga kirib olish va so‘ngra o‘ldirish niyatida Bag‘dodga, uning uyidagi maktabiga kirishga uringanligi, Kindiy topqirligi tufayli uning asl qora, qabih niyatda kelganligini ko‘rsatib, fosh etgani, siri fosh bo‘lgan Abu Mash’arning Kindiyning qat’iy ishonchi va bashoratini ko‘rib, unga sobitqadam shogird bo‘lib, astronomiya ilmini

¹ Беруний. Книга-ат-тафхим ли-л-аво’ил сино’ати-ут-танжим. // Абу Райхон Берунийнинг ўз асарларига ўзи тузган рўйхати (А.Расулов таржимаси). – Беруний туғилган кунининг 1000 йиллигига бағишланган тўплам. – Тошкент: Фан, 1973.- Б. 564.

² Ўша манба. – С. 87.

³ Низами Арузи Самарқанди. Собрание редкостей или Четыре беседы. Перев. С персидского С.И.Баевского и З.Н.Ворожейкиной, под ред. А.Н.Болдырева – М.: ИВЛ. 1963. – С. 93; 94; 96; 97; 98-100.

⁴ Газета “Аргументы и факты” // Материалы по теме: Нострадамус. – <https://aif.ru/tag/nostradamus>.

⁵ Абу Райхан Беруни. Собрание сведений для познания драгоценностей (Минералогия). – М.: Наука, 1963. - С. 11.

⁶ Низомий Арузий Самарқандий. Нодир хикоятлар. – Тошкент: АСН, 1985. – Б.54; Низами Арузи Самарқанди. Собрание редкостей или Четыре беседы. – М.: ИВЛ, 1963. -С.88; Низомии Арузи Самарқандӣ. Чаҳор мақола. -Душанбе: Ирфон, 1986. -Саҳ.113.

astoydil va chuqur o'rganib, mashhur bo'lib ketganligi haqidagi ibratomuz misol, hikoyasi¹.

3. Aruziy Xorazm Ma'mun Akademiyasi olimlarini sanab o'tayotganda Abu Rayhon Beruniyning astronomiya ilmida Abu Mash'ar al-Balxiy, Ahmad ibn Abduljalil as-Sajjiziy bilan teng maqomda turishini ta'kidlab, eslab o'tadi².

Yuqorida 2 bandda keltirilgan ta'rif, talqin ko'proq sayqal berilgan ta'lim-tarbiya o'giti, sarguzasht misolidek ko'rinsada, unda Abu Mash'ar al-Balxiyning ilm olishdagi sa'y-g'ayrati, sobitqadamligini yorqin ifodalashga xizmat qiladi.

Aruziyning Roziy haqidagi ma'lumotlariga kelsak, uning Roziy haqidagi ma'lumotlari, e'tirof va xulosalari, ayniqsa tavsiyalari o'z davri tabiatshunosligining fundamental yutuqlari, metodologik asoslari, g'oya va prinsiplarini, ayniqsa, aniq fundamental tabiatshunosligini to'g'ri ilmiy nishon, qadriyatlarini ishlab chiqish, yo'naltirishda bu mutafakkir o'ynagan buyuk rolni obyektiv, xolisona, adekvat ifodalay olganligi, o'zining odilona xulosalarini berganligini ko'ramiz. Gap shundaki, Aruziy Roziyning rasmiy sunniy va shia islomi, shariati vakillari orasida Roziyni dahriy, hurfikrlovchi sifatida ayblash, qoralashlarni, uning ulug' olim sifatidagi nomi, shaxsiyatini salkam kufr-bid'atchilik sifatida islom ruhoniylari, shariat ulamolari qanday qizg'in va keskin qoralab, hatto la'natlab tilga olingan. Shu sababli Roziy, uning olim sifatidagi shaxsiyati, ilmiy merosi to'g'risida hatto Aruziy yashagan XII-XIII asr oralig'ida ham xolisona gap yuritish, ularni o'rganish, o'qitishga tavsiya etish, uning o'zini ham dahriy, kofir, shakkok, mulhid deb e'lon qilinishi, qoralanishi, hatto ta'qibga uchrashini juda yaxshi bilgan.

Zero, Roziyning buyuk tabiatshunos, faylasuf, tabiiyyun vakili sifatidagi ta'limoti, ayniqsa Olloh Taoloni yakkayu yagona, mutlaq qodir xudo sifatida emas, balki Olamning asosida yotuvchi 5 abadiy-azaliy substansiyalar: Olloh Taolo; Birlamchi hayula (Materiya); Mutlaq Makon; Zamon; Nafs (Ruh-Jon)dan biri sifatidagi ta'limoti eng kamida Qur'on ta'limotiga zid, islom, shariat asoslarini qo'poruvchi mushriklik bilan ayblash, qoralashga olib keluvchi dahriyona ta'limot edi.

Qolaversa, Roziyning payg'ambarlar va Imomlar haqidagi "Uch aldoqchi"³ - Muso, Iso va Muhammad to'g'risidagi ta'limoti, ayniqsa shu muammo yuzasidan yozgan mulxidlik (ateizm), dahriylik asarlari: "Maharik-al-anbiya", "Mahaq-al-anbiyo", "Naqzi adyon"da Tuyakash Muso, Tabib Iso va savdogar Muhammad kabi barcha payg'ambarlik, momlikka da'vo qiladiganlar jamiyatdagi barcha aholi

¹ Низомий Арузий Самарқандий. Нодир хикоятлар. –Тошкент: АСН, 1985. – Б.57-58; Низами Арузи Самарқанди. Собрание редкостей или Четыре беседы. – М.: ИВЛ, 1963. – С.113; Низомии Арузи Самарқандӣ. Чаҳор мақола. – Душанбе: Ирфон, 1986. – С.88-89.

² Қаранг: Низомий Арузий Самарқандий. Нодир хикоятлар. –Тошкент: АСН, 1985. –Б.78; Низами Арузи Самарқанди. Собрание редкостей или Четыре беседы. – М.: ИВЛ, 1963. – С.131; Низомии Арузи Самарқандӣ. Чаҳор мақола. – Душанбе: Ирфон, 1986. – Саh.113.

³Каримов У.И. Неизвестное сочинение ар-Рази «Книга тайны тайн». –Ташкент: Фан, 1957. – С.27-31; Шад П. Закария Рази — иранский материалист и атеист раннего средневековья // Вопросы философии. 1958. -№ 6. – С.77-82; Ашуров Г. Отношение Носири Хисрава к Абу Бакру ар-Рази // Известия АН -Тадж.ССР, 1963. - №2. – С.11; Григорян С.Н. Средневековая философия народов Ближнего Востока. Ташкент: Фан, 1972. – С.57-105; Усманов М.О. Закария ар-Рази: Жизнь и деятельность // Из философского наследия народов Ближнего и Среднего Востока. – Ташкент, 1972.

tabaqalarini o'zlariga tobe' qilish, o'z izidan yurishish uchun aldov, yolg'on ta'limotlarni, turli din, mazhab ta'limotlarni ishga solib, dunyo mol-davlatini g'asb etish, shohona davlat, shavkat va nufuz qozonish maqsadida din va mazhablarni o'ylab topganlar, hiyla ishlatib, o'z g'arazlariga ergashganlar, degan ta'limot va qarashlari o'sha davrda Sharqda ham, G'arbda ham ateizm, materializm bayrog'iga aylantirilgan edi.

Shunga qaramay, ya'ni Roziyga xayrixohlikda, kofir, dahriy deb e'lon qilish xavfiga qaramay, Roziyni o'zining "Nodir hikoyatlar" kitobining IV-"Tabobat ilmi va tabiblarga qo'llanma haqida"¹ - deb atalgan maqolasi debochasidagi birinchi hikoyatida bu ilmning metodologik asoslari, ilmiy tadqiqot usul va prinsiplariga asos solgan Qadimgi Yunonistonlik Buqrot (Gippokrat), Jolinus (Galen) kabi buyuk tabobat ilmi asoschilari, Sharqda esa Hunayn ibn Is'hoq, Niliy, Sobit ibn Qurra, Abu Bakr Ahavayniy, Ahmad al-Farroj, Jurjoniy, Ibu Sahl Masihiy (Abu Ali ibn Sinoning ustozlari), Ibn Sino, Ibn Manduviya kabi tabobat daholari qatorida Roziy ismini sanab o'tish bilan cheklanmay, ularning shoh asarlari, har bir tabib bo'lishni istovchi qo'lida doimiy bo'lishi, muttasil o'rganilishi zarur bo'lgan kitoblari bilan teng mavke'da turishi, tabobatni o'rganishda asqotadigan o'quv-uslubiy darslik sifatida qayta-qayta 4 o'rinda ko'rsatib o'tadi.

Shu maqolaning 2 va 3 hikoyatlarida ko'proq Abu Rayhon Beruniyning qobiliyatlari, ilmdagi iqtidori va salohiyatini behad orttirib, mubolag'ali, lekin juda katta didaktik tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega bo'lgan latifa, xangomalar keltirilgan.

Ikkinchi hikoyatda Beruniyning Sulton Mahmud G'aznaviyning saroy astronomi va munajjimi sifatida sultondek injiq, nozikta'b hukmdorning narsa-hodisalarning borishini oldindan bashorat qilish bilan bog'liq saroyning devorini buzib, yangi beshinchi eshik ochib, tashqariga chiqishini Beruniy bashorat kuchi bilan topganligidan jahli chiqib, uni saroy tepasidan uloqtirib tashlab yuborishi, lekin Beruniyning saroy ko'shki oralig'iga xavfsizlik maqsadida tortib qo'yilgan to'r ustiga tushib, soppa-sog' yerga tushishini oldindan aytganligi, bundan jahli chiqqan Sulton Mahmudning uni qal'a zindoniga tashlattirgani, qamab qo'ygani va qamoqda olti oy yotganligi bayon etiladi.

Tahlil etilgan manbaviy ma'lumotlar Aruziyning Tabiiyyun vakillari bo'lgan Abu Mash'ar al-Balxiy, Abu Bakr Muhammad ar-Roziy va Abu Rayhon Beruniy dahosi, falsafiy, ilmiy dunyoqarashi, merosini "Falsafa tarixi" ixtisosligi bo'yicha o'rganish juda ko'p xulosa, kuzatish natijalarini berishni, falsafa tarixi fanini boyitishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

"Arablardan chiqqan birinchi faylasuf" Ya'qub ibn Is'hoq Kindiy haqida Aruziy o'z kitobi janridan kelib chiqqan holda III-chi maqola, birinchi nodir hikoyasini keltirib o'tadi: "...u o'z zamonining faylasufi va o'z davrining dono hakimi bo'lib, ko'rsatgan xizmatlari uni Ma'munga yaqinlashtirgan edi"². Kindiy mu'tazila faylasufi bo'lib, islomni ratsional usul va metodlar, aql, bilim, falsafa yordamida himoya qilish, mantiq va ilmiy bilish, eksperiment, tajribaviy bilimlarga ustuvor ahamiyat berish natijasida Qur'oni Karimning Olloh Taolo tomonidan

¹ Низомий Арузий Самарқандий. Нодир ҳикоятлар. – Тошкент: АСН, 1985. – Б. 69-73.


² Низомий Арузий Самарқандий. Нодир ҳикоятлар. – Тошкент: АСН, 1985. – Б. 56.

insoniyatni hidoyat yo‘liga boshlash uchun yaratilgan ilohiy kitob bo‘lsada, u inson qo‘li bilan yaratilgan, yozilgan kitob degan aqidani ilgari surgan edi. Hatto rasmiy sunniy islom ulamolari, mazhab asoschilaridan Ahmad ibn Hanbalni, boshqa o‘nlab islom, shariat ustunlarini “Qur’onning yaratilgan kitob” ekanligi haqidagi aqidani zo‘rlab, qasam ichirib tan oldirishga erishgan edi. U mumtoz o‘rta asr arab-musulmon jamiyatida ilk bor, keyinchalik “inkvizitsiya” nomini olgan e‘tiqodi uchun sinovdan o‘tkazish, ta‘qib qilish, qiynoqlarga solish uchun xizmat qilgan “Mihna”¹ tashkilotining joriy etilishiga erishgan edi.

Kindiy arastuchi faylasuf sifatida uning ta‘limoti, asarlarini ilk bor muntazam tarzda o‘rganish, himoya qilish, yanada rivojlantirishga bag‘ishlangan o‘nlab asarlar muallifi – Arastu – peripatetiklar maktabi – Mashshaiyyunlar oqimi vakili sifatida xalifa Ma‘mun saroyida muntazam o‘tkaziladigan turli diniy e‘tiqod, mazhablar vakillari – musulmonlar, xristianlar, yahudiylar, zardushtiylar, sobiylar, xaldeyliklar, manixeylar va shu kabi ta‘limotlar vakillari o‘rtasida turli ilmiy, diniy, falsafiy muammolarga oid bahs-munozaralar o‘tkazish tashabbuskori, faol ishtirokchisi, ko‘pincha g‘olibi bo‘lgan. Nizomiy Aruziy Samarqandiy dinga bo‘lgan munosabati bo‘yicha jamiyatning turli qatlamlari orasida 2023 yil 4 martidan – 16 martigacha 478 nafar respondent qatnashgan so‘rovnoma natijalarida ham ko‘rishimiz mumkin. Unga muvofiq «Nizomiy Aruziy Samarqandiy dinga munosabatidan xabaringiz bormi?» degan savolga respondentlarning 47.5 % (227 nafari) – «Dinga munosabati ijobiy», 14.4 % (69 nafari) – «Dinga munosabati salbiy», 26.2 % (125 nafari) – «Dinga qiziqish bo‘lmagan», 11.9 % (57 nafari) – «Bu haqida bilmayman» qabilida javob berishgan.(2-rasm.)

Nizomiy Aruziy Samarqandiy dinga munosabatidan xabaringiz bormi?

478 ответов



2-rasm. Respondentlarning “Nizomiy Aruziy Samarqandiy dinga munosabatidan xabaringiz bormi?” degan savolga javoblari.

¹ Каранг: Макдиси Дж. Суннитское возрождение // Мусульманский мир. 950-1150. - М.: Наука, ГРВЛ, 1981. – С. 174-188; Сурдел Д., Сурдел Ж. Цивилизация классического ислама. – Екатеринбург: У-фактория, 2006. С.162-172; A.J.Wensinck. Mihna // Shorter encyclopaedia of Islam. – Leiden: I.J.Brill, 1953. – P. 577-578; 611.

Aniqroq aytilganda, Sharqda qadimgi yunon falsafasi deganda Arastu va uning Sharqdagi izdoshlari Kindiy, Forobiy va Ibn Sinoni – “Sharq Arastuchilari”ni, ularning “peripatetiklar” - degan nomi arabchasiga “Mashshaiyyunlar”, ya’ni “yurib, kezib yurgan holda falsafa ilmi, san’atini o‘rganuvchilar” degan ma’noni bildirgan.

Aruziydan sal oldin yashagan diniy va falsafiy ta’limotlar tarixchisi Abu-l-Hasan Bayhaqiy o‘zining “Tatimma Sivan-al-hikma” asarining Fozil Shayx, Hakim Forobiyga bag‘ishlangan bibliografik tarixida quyidagicha ta’rif va talqinni keltirib o‘tgan: “Turkiston Faryobidan. Uni al-Muallim-as-Sani (Ikkinchi muallim) degan faxrli nom bilan ataganlar. Avval o‘tgan musulmon olimlari orasida unga teng keladigani bo‘lmagan. Aytadilarki, to‘rt faylasuf bo‘lgan – ikkitasi islomgacha. Bu Arastu va Iskandar (Aleksandr Afrodiziyskiy). Va yana ikkitasi – islom kelgandan so‘ng. Bu – Abu Nasr (al-Forobiy), ..., va Abu Ali...”¹.

Shuningdek, dissertasiyada Forobiy va Ibn Sino haqida ham qiziqarli ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

